

JAHON VALYUTA BOZORI VA VALYUTA SIYOSATINING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Akbarshoh Bahronov Abror o‘g‘li

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti,
“Xalqaro Iqtisodiyot va Menejment” fakulteti 3-bosqich talabasi

Dilnoza Bahronova Abror qizi

Toshkent Webster universiteti
TESOL fakulteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon valyuta bozorining va valyuta siyosatining iqtisodiy mohiyati, mazmuni hamda jahon valyuta tizimi va xalqaro valyuta munosabatlari, O‘zbekiston Respublikasida valyuta siyosatining asosiy jihatlari va valyuta munosabatlarini iqtisodiyotiga ta’siri haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: jahon valyuta bozori, valyuta siyosati, jahon valyuta tizimi, xalqaro valyuta munosabatlari.

THE ROLE OF THE WORLD CURRENCY MARKET AND CURRENCY POLICY IN THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: This article discusses the economic nature and content of the world currency market and currency policy, as well as the world currency system and international currency relations, the main aspects of currency policy in the Republic of Uzbekistan and the impact of currency relations on the economy.

Key words: world currency market, currency policy, world currency system, international currency relations.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti bilan bog‘liq jarayonlarni boshqarishda, milliy valyutaning xalqaro mavqeini belgilashda va mamlakatning joriy hamda kelajakdagi iqtisodiy munosabatlari tizimida valyuta siyosati muhim rol o‘ynaydi. U «ko‘p qirrali bashorat» (iqtisodiy rivojlanish barqarorligini ta‘minlash, ishsizlikning oldini olish va inflyatsiyani jilovlash, to‘lov balansining aktivligini saqlab turish) muhiti hisoblangan iqtisodiy siyosatning asosini egallashda, yetakchi o‘rin egallaydi.¹⁰³ Bugungi kunga kelib mamlakatlararo iqtisodiy hamkorlik va kelishuvlarning rivojlanishida hamda davlatning iqtisodiy barqarorlashishida milliy va xalqaro valyutalarga bo‘lgan munosabatning har qachongidan ko‘ra dolzarbligi yuksalib bormoqda.

E’tirof etib o‘tish joizki, O‘zbekiston hozirgi vaqtda valyuta siyosatini olib borishda dunyo tan olgan va xalqaro hamjamiyatning valyuta borasidagi tajriba va namunalaridan o‘rnak olgan holda, shuningdek, valyuta qonunlaridan kelib chiqib o‘z oldiga valyuta siyosatining asosiy maqsadlarini (mamlakatni yangi iqtisodiy pog‘onaga olib chiqish va uni barqarorlashtirish, inflatsiya darajasini pasaytirish hamda ishsizlikning oldini olish, yalpi ichki va tashqi bozorda valyuta almashinuvini yanada yaxshilash) belgilab oldi. Shunga mutanosib tarzda, xalqaro valyuta munosabatlari jarayonida, ya’ni jahon xo‘jaligi ishlab chiqarishi, taqsimlashi, ayirboshlashi va iste’molida milliy valyuta ishtiroki va uning xalqaro valyutaga aylanish tezligini mustahkamlovchi bir qator chora-tadbirlar kelajakdagi iqtisodiy rivojlanish uchun asos sifatida ko‘zlanmoqda.

ASOSIY QISM

Hozirgi rivojlanib borayotgan davrda har bir davlatning milliy iqtisodiyotini rivojlangan kredit-moliya tizimisiz tasavvur qilish qiyin. Valyuta bozoriga umumiy ma’noda ta’rif beradigan bo‘lsak, bu – talab va taklif asosida turli xil milliy va xalqaro valyutalar oldi-sotdi qilinadigan bozor hisoblanadi. Bundan tashqari bu bozorda, har qanday davlat chet el valyutasi oldi-sotdisi va chet el valyutasidagi qimmatbaho qog‘ozlarni (aksiya, obligatsiya,..) hamda, valyutaviy kapitalni investitsiya qilish

¹⁰³ Mamatqulov X.M. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Ma’ruzalar kursi. Samarqand, 2006

munosabatlarini amalga oshiruvchi iqtisodiy munosabatlar olib boriladi. Valyuta bozori jahon moliya bozorining muhim va asosiy qismi hisoblanadi.

Hozirgi kundagi valyuta bozorlari 1944-yilda paydo bo‘lgan Bretton-Vuds valyuta tizmidan keyin yuzaga kelgan. Bu turdagi valyuta bozorlarining o‘ziga xos jihatlaridan biri shuki, ular zamonaviy electron aloqalar orqali bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Dunyoning turli davlatlarida joylashgan xalqaro valyuta bozorlari valyutalarni oldi-sotdi qilishda bir-biriga nisbatan doimiy ta’sirda bo‘ladi.

Valyuta bozorlari – jahon xo‘jaligining muhim qismi hisoblanadi. Valyuta bozorlarida banklar va kompaniyalar valyuta operatsiyalarini amalga oshiradilar. Tashqi savdodagi hisob-kitoblar, kapitallarning hamda kreditlarning davlatlar o‘rtasidagi harakati va chet el valyutasini oldi-sotdi qilish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar valyuta bozorlaridagi operatsiyalarning asosini tashkil qiladi. Valyuta bozorlari turlari: Milliy valyuta bozori, Hududiy valyuta bozori va Jahon valyuta bozorlariga bo‘linadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tgan har bir davlatda xalqaro valyuta munosabatlari bozor va davlat tomonidan tartibga solinadi. Bozor tomonidan tartibga solish taklif va talab qonunlariga bo‘ysunadi. Valyuta siyosati bozor iqtisodiyotini tartibga solish tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Valyuta siyosati bu – davlatning joriy strategik maqsadlarga muvofiq xalqaro valyuta va boshqa iqtisodiy munosabatalari sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir. Uning asosiy maqsadi iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlash, inflatsiya va ishsizlik darajasini ko‘payishini oldini olish va to‘lov balansini tengligini ushlab turishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirishdir. Valyuta siyosati bu – valyuta muammolarini hal qilish uchun qarorlar tayyorlash , qabul qilish hamda tadbir etishdan iborat.

Mamlakatlararo valyutani boshqarish tashkiloti bo‘lib XVF hisoblanadi.

O‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab valyuta siyosatini muvofiqlashtirish bo‘yicha yig‘ilishlar bo‘lib utdi. Jumladan, 1975 - yil Rambuyeda (Fransiya) oltita yetakchi mamlakatlar ishtirokida; 1975 - yil Parijda Xalqaro iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risida;

1976 - yildan «Katta yettilik»ni (AQSH, Yaponiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Kanada) yillik amaliy yig‘ilishlarini sanab o‘tish mumkin.¹⁰⁴

Valyuta siyosati maqsad va shakliga ko‘ra tarkibiy va joriyga bo‘linadi.

Tarkibiy valyuta siyosati - jahon valyuta tizimi tarkibini o‘zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli tadbirlar majmuidir. Ular barcha mamlakatlarning maqsadlariga to‘g‘ri keladigan, alohida valyutalarni shakllantirishga qarshi qaratilgan valyuta tadbirlari orqali amalga oshiriladi. Tarkibiy valyuta siyosati, joriy valyuta tizimiga

o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Joriy valyuta siyosati - valyuta kursi, valyuta operatsiyasi, valyuta bozorining faoliyati va oltin bozorini qisqa vaqtda tezkorlik bilan boshqarishdir.

Valyuta munosabatlari - tashqi savdo, iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlik, xorijga kredit hamda qarzlarni berish va olish, valyuta va valyuta aktivlarini sotib olish bilan bog‘liq bitimlarni amalga oshirishda ishtirok etadigan, valyuta bilan bog‘liq munosabatlardir.¹⁰⁵ O‘tgan asrdan beri xalqaro munosabatlar rivojlanishi bilan birgalikda xalqaro valyuta munosabatlari ham o‘zining yangi bosqichiga chiqdi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi, jahon bozorining paydo bo‘lishi, xalqaro mehnat taqsimotining jadallashuvi, milliy iqtisodiyotlarning integratsiyalashuvi natijasida valyuta munosabatlari yanada rivojlandi.

Valyuta munosabatlarini, asosan, davlat (markaziy bank), xalqaro tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar amalga oshiradilar. Bugungi zamonaviy tashqi iqtisodiy aloqalarda hamda valyuta munosabatlarida iqtisodiyot va siyosat, diplomatiya sohasi va savdo-sanoatning uyg‘unlashib borayotganini ko‘rish mumkin.

Valyuta tizimi - bu milliy qonunchilik yoki davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan valyuta munosabatlarini tashkil etish va muvofiqlashtirishning shaklidir.¹⁰⁶ Valyuta tizimining uch ko‘rinishi mavjud: milliy, hududiy va jahon

¹⁰⁴ Nazarova G.G., Haydarov N.X Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T.: 2005.

¹⁰⁵ R. R. Tojiev "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari". Toshkent, TDIU nashriyoti, 2005 yil, 284-b.

¹⁰⁶ Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: учебник / под ред. Красавиной Л.Н. - 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 576 с.

valyuta tizimlaridir. Milliy valyuta tizimi bu – ma’lum bir davlat boshqa davlatlar bilan bo‘lgan hisob-kitoblarini bajaradigan usullari va milliy organlarining majmui tushuniladi. Milliy valyuta tizimi mamlakatning pul-kredit tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Hududiy valyuta tizimi deganda milliy va jahon valyuta tizimlarining oraliq elementi tushuniladi hamda u davlatlar hududiy guruhining integratsiyasiga hissa qo‘shadi. Masalan, Yevropa valyuta-iqtisodiy ittifoqini shunga misol qilsak bo‘ladi.

Jahon valyuta tizimi – jahon xo‘jaligining rivojlanishi natijasida shakllangan va davlatlararo bitimlar orqali mustahkamlangan xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil etish shakli hisoblanadi. Jahon valyuta tizimini alohida olingan milliy iqtisodiyotlarni jahon xo‘jaligi bilan bog‘lovchi mexanizm desak o‘rinli bo‘ladi. Jahon valyuta tizimining maqsadi bu – davlatlar o‘rtasidagi xalqaro hisob-kitoblarni ya’ni tovar va xizmatlar, kapital, eksport va import to‘lovlarini amalga oshirish uchun vositachilik qilish hamda davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni, xalqaro mehnat taqsimotini yanada rivojlantirishdan iboratdir.

Jahon valyuta tizimining eng asosiy xususiyati shundaki, u har doim o‘zgarib, rivojlanib turadi. Bu o‘zgarishlarning eng umumiy sabablari - jahon xo‘jaligini rivojlantirishdagi xalqaro hamkorlikning kuchayishi, tovar ishlab chiqarish va bozorlarning baynalminallashuvidir. Bugungi kunda uni tartibga solish mexanizmlarining doimiy o‘zgarishi va valyuta tizimining barqarorligi, valyuta tizimining evolyutsiyasi bilan qanchalik mos tushishiga bog‘liq.¹⁰⁷

Davlatimiz mustaqil bo‘lishi bilan, ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish, inflatsiya barqarorligini ta’minlash, jahon andozasi talablariga javob beradigan kuchli moliya tizimi yaratish, xalqaro valyuta va jahon savdo tizimiga integratsiyaga kirishish uchun makroiqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha bir qator masalalar turgandi. Bu kabi muhim masalalarni hal qilishda, bilamizki, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki - asosiy davlat tashkiloti turadi. Markaziy Bankning asosiy

¹⁰⁷ R. R. Tojiev "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari". Toshkent, TDIU nashriyoti, 2005 yil, 284-b.

funksiyalari bank-kredit sohasi ustidan nazorat, pul muomalasini tartibga solish, qat'iy pul-kredit hamda valyuta siyosatini amalga oshirishdir.

O'zbekiston Respublikasining asosiy savdo sheriklarida inflyatsiya va valyuta kurslarini 2021-yil ma'lumotlariga tayanib tahlil qilamiz.

Rossiya, Qozog'iston va Turkiyada inflyatsiya 2021-yilning 4-choragida maqsadli ko'rsatkichdan yuqori bo'ldi, Xitoyda esa noyabr oyida o'sishdan keyin inflyatsiya yana sekinlashishda davom etdi. Oktyabr-dekabr oylarida deyarli barcha savdo hamkor davlatlar inflyatsiyani pasaytirish uchun asosiy siyosat stavkalarini oshirgan holda pul-kredit siyosatini kuchaytirdilar. 2021-yilda ko'plab davlatlar pul-kredit siyosatini keskinlashtirish choralarini ko'rdilar. Rossiya banki asosiy stavkasini 4,25 foiz punktiga (IV chorakda 1,75 foiz punktiga) tushirdi. Shuni ta'kidlash kerakki, inflyatsiyaning yuqori darajasi, tashqi omillar ta'sirida Turkiya Markaziy banki yil boshidan buyon asosiy stavkani 3 foiz punktiga tushirdi. Turkiyaning yillik inflyatsiya darajasi 2021-yil oktabr-dekabr oylarida ham tezlashishda davom etib, yillik 36,1 foiz atrofida (2002-yildan beri eng yuqori daraja)ga yetdi.

2021-yilda Rossiya va Qozog'istonda yillik inflyatsiya darajasi 8,4 foizni tashkil etdi.

2021-yil oxiriga kelib, Xitoyda yillik inflyatsiya darajasi 1,5 foizga, noyabr oyida esa 0,8 foizga kamaydi. 2021-yilning 4-choragida ko'plab mamlakatlarda kasallanish holatlari ko'payganiga qaramay, Xitoy hukumati pandemiyani yumshatishga va ta'minot zanjirini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

2021-yilda Rossiya rubli 0,6 foizga qadrsizlandi (har biriga 73,9 rubl). Yil boshida 1 USD va yil oxirida 74,3 RUR) va yil davomida barqaror bo'lib qoldi.

Xitoy yuani 2021-yilda 2,8 foizga qimmatladi (har biriga 6,53 RMB). Yil boshida 1 AQSh dollari, yil oxirida 6,35 RMB). Yuan kursining oshishiga mamlakatga xorijiy kapitalning kirib kelishi va eksport sur'atlarining o'sishi asosiy omillar bo'ldi.

O'z navbatida, asosiy savdo milliy valyutalarining zaiflashuvi fonida hamkorlar va O'zbekistonda inflyatsiyaning sheriklar inflyatsiyasi darajasidan yuqori

shakllanishi, soʻmning real samarali ayirboshlash kursi 2021-yil oktyabr-dekabr oylarida 2,9 foizga mustahkamlandi.¹⁰⁸

XULOSA

Valyuta siyosati davlatning umumiy iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi boʻlib, mamlakatning pul-moliyaviy holatini mustahkamlash, uning toʻlov qobiliyati va kreditga layoqatliligini yuqori darajada ushlab turish, tashqi iqtisodiy aylanma uchun chet eldan valyuta kelib tushishini taʼminlash, iqtisodiy oʻzgarishlarga qarshi kurashishga, kapitalni chet elga chiqarish, chet el kapitalini jalb qilish va milliy valyuta kursini mustahkamlash va boshqalarga qaratilgan. Valyutani tartibga solish va valyuta nazorati bu vazifalarni hal etishga yordam beradi va davlat faoliyatining eng muhim yoʻnalishlari hisoblanadi. Oʻzbekistonda valyuta siyosati huquqiy jihatdan valyutaviy qonunlar asosida tartibga solinadi. Bularga huquqiy darajadagi chegaralarning oʻrnatilishi, mamlakat ichkarisida va mamlakat tashqarisida valyuta qiymatliklari bilan boʻladigan munosabatlarni tartibga solish, valyutaviy muammolar boʻyicha ikki tomonlama va koʻp tomonlama, mamlakatlararo valyutaviy kelishuvlarni tuzishni kiritish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. Mamatqulov X.M. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Maʼruzalar kursi. Samarqand, 2006
2. Nazarova G.G., Haydarov N.X Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T.: 2005.
3. R. R. Tojiev "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari". Toshkent, TDIU nashriyoti, 2005 yil, 284-b
4. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: учебник / под ред. Красавиной Л.Н. - 3- е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 576 с.
5. R. R. Tojiev "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari". Toshkent, TDIU nashriyoti, 2005 yil, 284-b
6. https://cbu.uz/upload/iblock/968/Monetary-Policy-Review-for-Q4_-2021_.pdf

¹⁰⁸ https://cbu.uz/upload/iblock/968/Monetary-Policy-Review-for-Q4_-2021_.pdf